



" YUSUF VA ZULAYHO" TURKUMIDAGI DOSTONLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti filologiya va tillarni
o'qitish: o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Akbaraliyeva Feruza

Annotatsiya: *"Yusuf va Zulayho" turkumidagi dostonlar Sharq mumtoz adabiyotining eng yirik diniy-axloqiy qissalaridan biri bo'lib, ular turli davr va hududlarda yaratilgan ko'plab badiiy talqinlarga ega. Ushbu maqolada dostonlarning poetik xususiyatlari, syujet talqinidagi farqlar, tasavvufiy g'oyalar, obrazlar tizimi hamda mualliflik yondashuvining o'zgarishi tahlil qilinadi. Shuningdek, Yusuf va Zulayxo qissasining o'zbek adabiyotidagi o'rni, uning ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Yusuf va Zulayxo, Durbek, Alisher Navoiy, Qissasi Rabguziy, doston, sharq adabiyoti, tasavvuf, poetika, obrazlar tizimi, syujet, mumtoz adabiyot.*

Annotation: *The "Yusuf and Zulaykha" cycle of epics represents one of the most significant religious-ethical narratives of classical Eastern literature. This article examines their poetic features, variations in plot interpretation, Sufi philosophical ideas, character system, and the evolution of authorial approaches across different periods. It also highlights the role of the Yusuf and Zulaykha story in Uzbek literature and its spiritual and educational significance.*

Keywords: *Yusuf and Zulaykha, epic poem, Eastern literature, Sufism, poetics, character system, plot, classical literature.*

Аннотация: *Цикл дастанов «Юсуф и Зулайха» является одним из наиболее значимых религиозно-нравственных мотивов восточной классической литературы. В статье анализируются поэтические особенности произведений, различия в трактовке сюжета, суфийские идеи, система образов и изменение авторского подхода в разные эпохи. Также*



рассматривается место сюжета о Юсуфе и Зулайхе в узбекской литературе, его духовное и воспитательное значение.

Ключевые слова: *Юсуф и Зулайха, дастан, восточная литература, суфизм, поэтика, система образов, сюжет, классическая литература*

Kirish: "Yusuf va Zulayho" syujeti xalq orasida nihoyatda mashhurdir. Manbalarda Yusufni juda qadimiy ildizga ega ekanligi, u yahudiylarning qadimiy xudolaridan biri bo'lsa kerak degan qarashlar bayon etilgan. Sharqda "Yusuf va Zulayho" obrazlari bilan ko'plab afsona va rivoyatlar yaratilgan. Bu syujetning yana ham keng yoyilishida "Tavrot" va "Qur'oni karim"ning ham juda katta ta'siri bo'ldi. Bu muqaddas diniy kitoblarda Yusuf bilan bog'liq voqealar, suralar keltirilgan. Yozma adabiyotda "Yusuf va Zulayho" syujeti ancha ilgari davrlardan boshlab yoritila boshlandi. Abul Muayyad Balxiy, Baxtiyoriy degan shoirlarning bu syujet asosida asar yozgan degan ma'lumotlar mavjud. Lekin ularning asarlari bizgacha saqlanib qolmagan.

Yusuf va Zulayho" turkumidagi dostonlar Sharq adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Bu asar sayyor syujetli asarlar sirasiga kirib, VII asrda islom dinining kirib kelishi bilan turkiy xalqlar adabiyoti tarkibidan o'rin ola boshladi. Bu turkumdagi dostonlarda asosiy hodisalar Qur'onning "Yusuf" surasida keltirilgan voqealardan olingan bo'lib, unda payg'ambar Yusufning hayoti, sabr-toqati, pokligi va go'zalligi asosiy g'oya sifatida yoritib boriladi.

Avvalo, bu dostonlarning diniy-ma'rifiy xarakteri ularni boshqa epik asarlardan ajratib turadi. "Yusuf va Zulayho" doston va qissalarida Allohga bo'lgan imon, sabr, halollik, tavba vakechirimlilik kabi fazilatlar yetakchi mavzu sifatida ilgari suriladi. "Yusuf va Zulayho" dastlab diniy manbalardan Tavrot, Injil, Qur'oni Karim kabi kitoblarda uchraydi. Mazkur qissa Qur'onikarimning 12-surasi hisoblanib, Makkiy suralardandir. 111 oyatdan iborat. Diniy manbalarda bu qissa haqida turlicha qarashlar mavjud. Yusuf surasining nozil bo'lish sabablari haqida ilohiy kitobning tarjimoni Alouddin Mansur shunday ma'lumot beradi: "Bu sura Hud surasidan keyin Muhammad allayhissalom hayotlarining eng qora kunlarida – yaqinlari Hadicha va AbuTolibdan ajralgan, mushriklar tomonidan ozor-aziyatlar



chekib qiynalib yurgan kezlarida nozil bo'lgandir. Go'yo Alloh taolo o'zining suyukli payg'ambariga va u zotning barcha ummatlariga agar boshlariga tushgan balo-yu kulfatlarga va diyonatsiz kimsalarning zulm-u zo'ravonliklariga sabr-qanoat qilib, o'zlarining haq yo'lidagi kurashlaridan tolmay, Allohning dinidan qolmay, sobitqadam bo'lsalar, Parvardigori olam ularni zulmatlardan va tor-u tanglikdan xalos qilib, nurli, baxt-saodatli kunlarga yetkazajagini uqtirayotgandek..." Ushbu qissaning Qur'oni karimda kelishiga sabab: odamzodning boshiga kelgan har qanday og'ir kunda ham sabrli bo'lishi, Allohga shak keltirmaslik, barcha qiyinchiliklarda o'zini tuta bilishi va kechirimli bo'lishga undovchi davatlardan iboratdir. Qur'oni karimda: Yusuf alayhissalom akalari va Zulayho tomonidan fitnaga uchrasa-da, sabr bilan yo'l tutadi.

Ikkinchidan, bu dostonlarda tasviriy vositalar keng qo'llanilgan. Yusufning go'zalligi, Zulayhoning Yusuf hajrida chekkan iztiroblari chuqur yoritiladi. Masalan, Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" asarida go'zallik timsoli sifatida Yusuf obrazini keltiradi va bu orqali ma'naviy go'zallikni ulug'laydi. Abdurahmon Jomiy o'zining "Yusuf va Zulayho" (Ogahiy tarjimasi) dostonida Yusufning go'zaligini quyidagi tasviriy vositalarda keltiriladi. "Yusuf jamolini dostonin sham'in shabiston aynida yondurmoq va bani odam ko'ngliparvonasin ul shula mushohidasida kuydurmoq":

.... Ango Yusuf ko'rundi o'ylakim moh,
Demay mah, mehri avji izzat-u joh.
Quyoshdek barchadin husn ichra mumtoz,
Hamul jam ichra shamoso sarafroz.
Qoshida o'zgalar husni bo'lib gum,
Oningdekkim, quyosh oldida anjum.
Erur egnida dilbarlik ridosi,
Ridopo'sh el qilib jonin fidosi.
Kamoli husnig'a andisha etmay,
Jamei aqli fikratpesha etmay.
Tanida jilati lutfi ilohi,



Boshida toji farri podshohi.

”Uchinchidan, “Yusuf va Zulayho” dostonlari axloqiy-ma’naviy tarbiyada ham yuqori ahamiyat kasb etadi. Asar o‘quvchiga sabrli bo‘lish, pok saqlanish , nafsga qarshi kurash g‘oyalarinisingdiradi. Bu jihatdan asarlar didaktik ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Durbekning “Yusuf vaZulayho” dostonida qahramonlar har qanday og‘ir qiyinchilikka duchor bo‘lganda ham o‘z orzularining amalga oshirishga aniq umid bog‘laydilar. Durbekning “Yusuf va Zulayho”dostonida tasviriy ifodalarni qo‘llash emas, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri voqealar rivojiga o‘tilganligi,asar hazrati payg‘ambar sallolohu alayhi vasallamning na’ti, Yusuf-Zulayho kitobining ibtidosi,Yusuf og‘alari yomon sog‘ing‘onlari boblaridan boshlanib ketilgani ko‘rsatiladi.

Dostonlarning yana bir o‘ziga xos jihati – ularning ko‘p tillarga tarjima qilinishi va turli xalqlar orasida mashhurlikka erishganidir. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy kabi ijodkorlar bu syujet asosida o‘z talqinlarini yaratganlar. Ularning har biri Yusuf qissasini o‘z zamonasining madaniy va ma’naviy muhitiga mos holda ifodalagan.

Yusuf allayhissalomning badiiy adabiyotdagi o‘rni doston va qissalar tarkibida yoritilgan. Bu mavzu arab va fors tillarida Firdavsiy, Ibn Sino, Kisosiy, Abdurahmon Jomiylar, turkiy nazmda esa Qul Ali, Sayyod Hamza, N.Rabg‘uziylar tomonidan qalamga olingan.Nosuriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida payg‘ambarlar hayoti va karomatlariga bag‘ishlangan 72 qissa mavjud bo‘lib, “Qissasi Yusuf” syujetli asari “Qissasi Rabg‘uziy”tarkibida o‘n sakkizinchi o‘rinda kelgan va hajm jihatdan barcha qissalardan kattadir.

"Qissasi Yusuf" asarida Yusufning go‘zalligi g‘oyat darajada ta’sirchan, jozibali, badiiy dalillangan: “Xabarda kelmish, Rasul allayhissalom yorliqlar: Meroj tuninda izidin manga yorlig’ bo‘ldi:“Ey Muhammad, ujmoh dag‘i hurlarning ko‘rkini dunyoda ikki kishiga berdim. Bir onang Havvog’a,ikkinchi Yusuf Siddiqg’a Taqi aymishlar: Mavlo ko‘rkni ming ulush qildi, to‘quz yuz to‘qson to‘quzni Yusufg’a berdi, bir ulushni tugal olamlarg’a berdi”.Yusuf tush ko‘rdi. Tushida quyosh, oy va 11 yulduz unga sajda qiladilar. Mazkur tushni o‘g‘li tilidan tinglagan



Ya'qub allayhissalom uni hech kimga so'zlamasligini Yusufga qattiq tayinlaydi. Ammo tush va uning ta'biri o'gay ona orqali boshqalarga oshkor bo'ladi. Bu esa akalarining Yusufga bo'lgan adovatini avvalgidan ham kuchaytiradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, "Yusuf va Zulayho" turkumidagi dostonlar Sharq adabiyotining eng go'zal yuksak namunalaridan bo'lib, ular o'zining diniy-ma'rifiy, badiiy-estetik va axloqiy tarbiyaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Syujetning Qur'ondagi "Yusuf" surasiga tayanishi asarlarga ma'naviy chuqurlik beradi, shoirlarning badiiy talqini esa har bir dostonga o'ziga xos rang va uslub bag'ishlaydi. Ushbu dostonlar insonni ezgulikka chorlaydigan hikmatli mazmuni va boy poetik ifodasi bilan qadrlanadi. Bu asarlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va insoniyat qalbida ezgulik urug'ini qadashda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nosuriddin Rabg'uziy . Qissasi Rabg'uziy. 2-kitob. – Toshkent: Yozuvchi.1991.71-b.
2. Abdurahmon Jomiy. Yusuf va Zulayho. –Toshkent: G. G'ulom. -1997. 54-b.
3. Qur'oni Karim (tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). –Toshkent: Cho'lpon, 1992.67-b4. Durbek.Yusuf va Zulayho. –Toshkent. O'zbekiston fanlar akademiyasi,1959. 13